

Tuxtabayev A.

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Organik dehqonchilik va o‘rmon melioratsiyasi” kafedrasida dotsenti.

Tuxtabayev A.

Dotsent of the Department of “Organic Agriculture and Forest Melioration” at the Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Uzbekistan.

**IHOTA DARAXTZORLARINING EKOLOGIK MUHITNI YAXSHILASH
HAMDA QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARI HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI.
THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL TREES ON THE IMPROVEMENT
OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT AND ON THE
PRODUCTIVITY OF AGRICULTURAL CROPS.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ihota daraxtzorlarining ekologik muhitni yaxshilashdagi hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ihota daraxtzorlari shamol tezligini kamaytirish, tuproq eroziyasining oldini olish, namlikni saqlash, mikroiklimni me‘yorlashtirish va biologik xilma-xillikni boyitishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ihota daraxtzorlari, ekologik muhit, qishloq xo‘jaligi, hosildorlik, mikroiklim, tuproq eroziyasi, shamoldan himoya, namlikni saqlash, agroekotizim, yashil hududlar, biologik xilma-xillik, meliorativ ahamiyat.

Abstract. This article highlights the importance of shelterbelts in improving the ecological environment and increasing the productivity of agricultural crops. Shelterbelts play a significant role in reducing wind speed, preventing soil erosion, conserving soil moisture, regulating the microclimate, and enhancing biodiversity.

Keywords: shelterbelts, ecological environment, agriculture, crop productivity, microclimate, soil erosion, wind protection, moisture conservation, agroecosystem, green infrastructure, biodiversity, land reclamation.

Ihota daraxtzorlari - qishloq xo‘jaligi ekinlari, chorvachilik fermalari, sug‘orish kanallari, aholi yashash punktlari, avtomobil va temir yo‘llar, suv

omborlari hamda boshqa xo‘jalik obyektlarini tabiatning noqulay omillari, jumladan qurg‘oqchilik, shamol va suv eroziyasi, sel oqimlari, qor bosishi kabi hodisalardan muhofaza qilish, shuningdek hudud mikroiklimini yaxshilash maqsadida barpo etiladigan himoya o‘rmon daraxtzorlaridir.

Ihota daraxtzorlari ekologik va meliorativ ahamiyatiga ko‘ra o‘rmonlarning birinchi guruhiga mansub bo‘lib, ular atrof-muhit barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Bajaradigan vazifalariga qarab davlat ihota o‘rmonzorlari, lalmi yerlardagi ihota daraxtzorlari, kanallar bo‘yidagi ihota o‘rmonzorlari, sug‘oriladigan yerlardagi dala ihota o‘rmonzorlari, tog‘ qiyaliklarida suv rejimini tartibga soluvchi ihotazorlar, jarliklar atrofidagi o‘rmon ihotalari, tog‘-meliorativ ihota daraxtzorlari, yaylov ihotazorlari, fermalar atrofidagi himoya daraxtzorlari, yashil soyabonlar hamda ko‘chma qumlarni mustahkamlash maqsadida barpo etilgan ihotazorlarga bo‘linadi.

Ihota daraxtzorlarini yaratishda asosiy himoyalovchi daraxt turlari, yo‘ldosh daraxtlar va tuproqni eroziyadan saqlovchi buta o‘simliklaridan foydalaniladi. Asosiy daraxtlar shamol kuchini kamaytirish va himoya funksiyasini bajarishga xizmat qilsa, yo‘ldosh daraxtlar tuproqning strukturaviy holatini yaxshilaydi, butalar esa tuproq yuzasini mustahkamlab, eroziya jarayonlarini cheklaydi.

Ihota daraxtzorlarining turli shakllari qishloq xo‘jaligi va ekologik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Lalmi va sug‘oriladigan yerlarda odatda daraxt va butalardan tashkil topgan 2–4 qatorli, ayrim hollarda esa 5 qatorli dala ihota daraxtzorlari barpo etiladi. Shamol kuchli esadigan hududlarda, jumladan Farg‘ona vodiysining Qo‘qon guruhi tumanlari, Mirzacho‘l va shunga o‘xshash mintaqalarda 4-5 qatorli panjarasimon ihota daraxtzorlari yuqori samaradorlikka ega. Bunday daraxtzorlarda vertikal kesim bo‘ylab ma‘lum oraliqlarda yo‘laklar qoldirilishi shamol oqimining tartiblanishiga xizmat qiladi.

Dala ihota daraxtzorlari shamol tezligini kamaytiradi, tuproqni shamol eroziyasidan himoya qiladi, qish mavsumida qorning bir tekis to‘planishini

ta'minlaydi hamda tuproqda namlikning saqlanishiga yordam beradi. Natijada ekinlarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay mikroiklim shakllanadi.

Suvni tartibga soluvchi ihota daraxtzorlari asosan qiyaliklarda joylashgan qishloq xo'jaligi yerlarida tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi erigan qor suvlari va yog'inlarning yuzaki oqimini kamaytirish, tuproq yuvilishining oldini olish hamda suvning tuproq qatlamlariga singib borishini yaxshilashdan iborat. Bunday daraxtzorlarning samaradorligini terrasalar, marzalar va suv chiqaruvchi ariqchalar kabi oddiy gidrotexnik inshootlar yordamida yanada oshirish mumkin.

Soylik va jarliklar bo'yida barpo etiladigan ihota daraxtzorlari ushbu hududlarni yuvilish va yemirilishdan muhofaza qiladi. Odatda bunday daraxtzorlar 12,5–21 metr kenglikda zich ekiladi, ayrim hollarda esa jarlik va soylik atroflari to'liq o'rmonzorlashtiriladi. Tog' yonbag'irlaridagi ihota o'rmonzorlari esa sel oqimlari xavfini kamaytirish va suv rejimini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Qumli hududlarda tashkil etiladigan ihota daraxtzorlari shamol eroziyasi va deflyatsiyaning oldini olish, ko'chma qumlarni mustahkamlash hamda cho'l yaylovlarining meliorativ holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Kanal bo'ylab ekilgan daraxtzorlar suvning bug'lanishini kamaytiradi, grunt suvlari sathini me'yorlashtiradi va yerlarning ikkilamchi sho'rlanishining oldini oladi.

Suv omborlari atrofida barpo etilgan ihota daraxtzorlari yer usti oqimini kamaytirib, suvning tuproq va grunt qatlamlariga singishini kuchaytiradi, qirg'oqlarning yuvilib ketishidan himoya qiladi hamda hududning gidrologik rejimini yaxshilaydi. Aholi yashash punktlari va transport yo'llari atrofida ihota daraxtzorlari esa shamol tezligini pasaytiradi, qurg'oqchilik ta'sirini yumshatadi, havoning sanitariya-gigiyenik holatini yaxshilaydi va avtomobil hamda temir yo'llarni qor bosishidan himoya qiladi.

Ihota daraxtzorlari shamolga nisbatan joylanishiga qarab asosiy (shamol yo'nalishiga ko'ndalang) va yordamchi (asosiy ihotazorga perpendikulyar) turlarga bo'linadi. Asosiy o'rmon ihotazorlari oralig'i shamolning kuchiga qarab

300-600 m, yordamchi ihotazorlar oralig‘i 800-1200 m bo‘ladi. Ihota daraxtzorlari 3-5 qatordan iborat bo‘lib, qatorlar oralig‘i 2,5-3 m, qator ichida 1-2 m ga teng bo‘ladi. O‘zbekistonda har yili 33 ming ga maydonda o‘rmonzorlar barpo qilinmoqda, uning 10-12 ming gektari Orol dengizining suvi qurigan joylariga to‘g‘ri keladi.

O‘rta Osiyo hududida asosiy daryolarning oqimi tog‘larda hosil bo‘ladi, shu sababli tog‘ o‘rmonlarining ahamiyati, ayniqsa, katta. O‘simliklar va ko‘p mikkorda nam singdiradigan xazon to‘shamalarigina tog‘larga yog‘adigan yog‘inlarni, ayniqsa jala yomg‘irlarini tutib qolishi mumkin. Tajribalarda suv havzasi maydonida daraxtzorlarning 10% ko‘payishi oqimni 12-17 mm orttirishi aniqlangan. O‘rta Osiyo tog‘larida o‘rmonlar kam: tog‘larning o‘rmonlar bilan qoplanish darajasi 2,47%, jumladan, O‘zbekistonda 2%, Qirg‘izistonda 4,2%, Tojikistonda 1,8%, Turkmanistonda 0,8%, Jan. Qozog‘istonda 2,5% ni tashkil etadi.

Shuning uchun ham bu mintaqada o‘rmonlarni muhofaza qilish va yangi o‘rmonzorlar barpo etish masalasi juda katta ahamiyatga ega. 1880 y.da Samarqand (Omonqo‘ton)da N.I.Korolkov, 1889 y.da Toshkent viloyati (Oqtosh)da S.Yu.Rauner birinchi marta O‘rta Osiyodagi tog‘ yon bag‘irlarida o‘rmonzorlar tashkil etishga asos soldilar. O‘rta Osiyoda tabiiy archazorlar 492,8 ming ga dan ortiq, jumladan, O‘zbekistonda 192,5 mingga, Qirg‘izistonda 151,8 ming ga, Tojikistonda 124,7 ming ga, Turkmanistonda 23,8 ming ga maydonni, tog‘ yon bag‘irlarida ekilgan archazorlar 5000 ga dan ziyod maydonni egallaydi. O‘rmon daraxtlari ko‘chatlari maxsus ko‘chatxonalarda yetishtiriladi. Tog‘ yon bag‘irlarida terassalar tayyorlash, ko‘chatlar o‘tqazish uchun mashina va mexanizmlar kompleksi keng qo‘llaniladi.

Tog‘ o‘rmonzorlarini muhofaza qilish va kengaytirishda qo‘riqxonalarining ahamiyati katta (q. Zomin tog‘ o‘rmon davlat qo‘riqxonasi, Nurota davlat qo‘riqxonasi). Ihota daraxtzorlari daryo yoqalarida, yirik magistral kanallar (Jan. Mirzacho‘l, Katta Farg‘ona, Qarshi, AmuBuxoro mashina kanali, Qoraqum

va h. k.), xo‘jaliklararo va xo‘jalik kanallari bo‘yida, suv omborlari (Qayroqqum, Kattaqo‘rg‘on, Jan. Surxon, Chorvoq, Tuyabo‘g‘iz, Andijon va b.) atroflarida tashkil qilingan. Qirg‘oq bo‘ylari va qayirlarda, asosan, jiyda, terak, tol, qayrag‘och va boshqa daraxt va butalar ekiladi.

X U L O S A

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tashabbusini yakdillik bilan maqullab, mamlakatimiz aholisini sog‘lom va barkamol o‘sib kamol topishida atrofimizni o‘rab turgan daraxtlarning beqiyos xizmatlari borligini, ular tabiat tomonidan berilgan beminat boylik ekanligini unutmashimiz, kelajakka bog‘ va sog‘lom avlod qoldirish haqida atrofimizni o‘rmonlashtirish ishlariga o‘zimizning xissamizni qo‘shmog‘imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.I. Susa, F.I. Serebryakova “Agrolesomeliorsiya” Moskva. Kolos 1966 god
2. Kolesnichenko M. B “Lesomeliorsiya s osnovami lesovodstva” Moskva. Kolos 1981 god
3. Xonazarov A.A Tuproq eroziyasi va tog‘ o‘rmon melioratsiyasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1998
4. Kumzullaev G‘.K. Xonazarov A.A “Ihota daraxtzor va dehqonchilik”, Toshkent. O‘qituvchi. 2002
5. Norqulov U., Sheraliev H. “Yaylovlar melioratsiyasi” Toshkent Yangi asr avlodi. 2010 yil.
6. Schroth Fonseca, Harvey, Garson, Lasconcelos and Izac Eds Agroforestry and biodiversity Conservation in Tropical Landscapes. USA. Island Press. 2004.
7. Dvorak J. Novak L. Soil conservation and silviculture. London. Elsevier. 1994

8. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal

9. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

10. www.ziyonet.uz